



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

109-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 85-son qarori ijrosi haqida”gi 97-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 85-son qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyatining geoaxborot ta‘minotini samarali tashkil qilish, shaharsozlik faoliyati monitoringini yuritish va sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 97-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 - va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 85-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 97-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar:

shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta‘minlash uchun markazlashtirilgan goiografik ma‘lumotlar bazasini yaratish va yuritish qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

yirik masshtabli geografik rejalar uchun shartli belgilar klassifikatori 2-ilovaga muvofiq;

markazlashtirilgan geografik ma‘lumotlar bazasini ishga tushirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri ilmiy-tekshirish instituti Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilab birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar:

o‘z mablag‘lari hisobidan shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta‘minlash uchun ishlab chiqilayotgan barcha turdagi yirik masshtabli topografik tasvirlar va rejalar “topografiya” ma‘lumotlar bazasiga kiritib borilishini ta‘minlovchi o‘z veb-platformasining dastlabki versiyasini ishlab chiqib, ishga tushirish belgilanganligi;

“topografiya” ma‘lumotlar bazasini “O‘zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri” gsografik axborot tizimi, Kadastr agentliginiig davlat geodeziya va kartografiya fondi ma‘lumotlar bazasi hamda boshqa davlat axborot tizimlari va ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiya qilishni tashkil etganligi;

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2025-yil 1-iyuldan boshlab:

respublika hududida mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qurilishi tugallangan barcha ob'ektlarda ijroviy topografik tasvirga olish jarayonlari bajariladi va "topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilishi;

idoraviy buysunishi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilotlar va korxonalar tomonidan amalga oshirilgan yirik masshtabli topografik tasvirlar va rejalar "topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilishi;

yirik masshtabli topografik tasvirlar va rejalar, jumladan, qurilishi tugallangan obyektlarning ijroviy topografik tasvirlari davlat geodeziya koordinatalar tizimi,

xalqaro (WGS-84) koordinatalar tizimi yoxud davlat geodeziya koordinatalari tizimi bilan o'zaro bog'liqligi ta'minlangan mahalliy koordinatalar tizimida bajarilishi;

"topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilmagan topografik rejalaridan foydalanilgan ishchi loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi;

"topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ijroviy topografik tasvirlari mavjud bo'lmagan qurilish va (yoki) rekonstruksiya tugallangan obyektlar foydalanishga qabul qilinmasligi;

joy holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan, hududni obodonlashtirish va buzishga oid barcha turdagi ishlar yakunlangach, ijroviy topografik tasvirga olish jarayonlari bajarilib, yakuniy topografik rejalar "Topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilishi;

hududlarda amalga oshirilgan buzish va (yoki) obodonlashtirish ishlari yakuni bo'yicha "Topografiya" ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ijroviy topografik tasvirlari mavjud bo'lmagan ishlar uchun ishlarni qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish qatiyan taqiqlanganligi;

qurilishi yakunlangan obyektlarning ijroviy topografik tasvirlari obyekt bo'yicha pudrat tashkiloti va geodeziya faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida ishlab chiqilishi belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharsozlik faoliyatini geoaxborot bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 12-fevraldagi 85-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov